

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KITOBOXONLIK ORQALI TADBIRKORLIKKA OID BILIMLARNI OSHIRISH YO‘LLARI

Djaxangirova Zuxra Tursunovna

zuxra.tursunovna.93@inbox.ru

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda badiiy adabiyotning muhimligi, kitobni tanlab o‘qish, badiiy-ijtimoiy adabiyotlarning, oilaviy kitobxonlikning bu boradagi ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchisining mакtab ta’limidagi asosiy burchlari, ta’lim jarayoni mazmuni haqida ba’zi tavsiyalarni berishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, tadbirkorlik, iqtisod, tarbiya, badiiy adabiyot, kitobxonlik, mas’uliyat, axloq, ko‘nikma, qiyosiylik, xalq pedagogikasi.

ABSTRACT

In this article, opinions are expressed about the importance of fiction literature, selective reading of books, fiction and social literature, and family reading in this regard. An attempt was made to give some recommendations about the main duties of a primary school student in school education, the content of the educational process.

Keywords: elementary school, entrepreneurship, economy, education, fiction, reading, responsibility, ethics, skills, comparative, folk pedagogy.

KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning asosiy omillaridan biri yosh avlodni ma’naviy barkamol, yetuk shaxs bo‘lib yetishishida olib borilayotgan keng qamrovli ishlardir. Bu ishda, ya’ni o‘quvchilarning ma’naviy barkamolligida kitobxonlikning alohida o‘rni bor. Ayniqsa, o‘quvchilarni kitob o‘qishni sevishga o‘rgatishda baddiy adabiyoning rolini oshirish alohida ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot o‘quvchilar uchun ilk tarbiya vositasi, ma’naviy – axloqiy boyliklarning bitmas – tunganmas xazinasidir.

Bolalarga mo‘ljallab yaratilgan og‘zaki ijod namunalari xalqning ming yillar mobaynida yosh avlodni tarbiyalashda xizmat qilib kelgan buyuk pedagogik merosdir. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yilda ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan To‘rtinchchi tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha

tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan. Kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha Prezidentimiz farmoniga ko‘ra maktablarda kitobxonlik kechalari, tadbirlar aksiyalar o‘tkazilib kelinmoqda [6]. Bu kabi ishlar o‘quvchilar ma’naviyatini, turli sohalarga oid bilimlarini yanada rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xalq pedagogikasi xalq, jamoa ijodkorligining mahsuli sifatida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy taraqqiyot bosqichini belgilab beruvchi tayanch manba hisoblanadi. U ko‘pqirrali jarayon bo‘lib, tarkibiy vositalar (xalq qo‘sishlari, afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qo‘sish, latifa, lof, xalq dramasi, askiya), xalq tasviriy va amaliy san’ati (xalq yaratgan badiiy-estetik san’at namunalari, teatr, musiqa), ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo‘lgan, rivojlangan qadriyat darajasiga ko‘tarilgan an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, amaliy faoliyatdagi ilg‘or tajribalar majmuidan iborat. Bular natijajida bolada turli sohalarga oid bilimlari yuksaladi. Bu ayrim hollarda boshlang‘ich sindagi o‘quvchilarning iqtisod, matematika, hisob ilmiga oid bilimlarining tizimli shaklda rivojlanishiga ham yordam beradi. [5, 58].

Bu kabi muhim masalalar atoqli adabiyotshunos olimlar O.Sharafiddinov, I.Sulton, U.Normatov, Q.Qahramonov, metodika sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan Q.Yo‘ldoshev, H.Ne’matov, A.G‘ulomov, Q.Husayinova, S.Dolimov, H.Hamroyev [5,4-5] kabilarning fikrlarida yuqorida ko‘rsatilgan masalalar tahliliga e’tibor qaratilib, asosli fikrlar berilgan.

Boshlang‘ich sinflarda kitobxonlikni targ‘ib qilish uchun ota ona birinchi navbatda o‘zidan boshlashi kerak. Farzandiga ertangi hayotda kerak bo‘ladigan, ularni fikrashga, mantiqiy izchilikka o‘rgatadigan kitoblarni o‘qitishi lozim.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ota ona uchun hayotida uchraydigan eng katta mehnat farzand tarbiyasidir, ishonavering bundan og‘ir ish yo‘q. Oilalarimizni isloq qilsak, farzandlarimizni xulqini go‘zal qilib tarbiyalasak jamiyatimizga eng katta ish qilgan bo‘lamiz. Farzandlarimizni tarbiyasi uchun allomalarimizni hayotini o‘rganish kitoblarini o‘qish kerak. Ota ona farzandlariga ibratni bugundan boshlab bitta allomani hayotini uch to‘rtta lavhani o‘qib bering ertasi kuni onasi o‘qib bersin shundan keyin kitobxonlikka, farzand tarbiyasiga yo‘l ochgan bo‘lamiz. “Har qanday jamiyatga rostgo‘y, omonatdor, birovni haqqini yemaydigan farzand har qanday jamiyatga kerak. Halol vijdongan ishlaydigon farzandni tarbiya qilish zarur. Buning uchun oilaviy kitobxonlikni o‘rni katta ahamiyat kasb etadi” [4;2].

Metodist olim Q.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “Adabiyot darsi boshqa predmetlardan farqli o‘laroq, odam uchun faqat maktabdagagi o‘qish davridagina emas, balki umri mobaynida o‘rgatilishi zarurdir. Adabiyot yaxshi o‘qilsa, maktabga

kelganida eplab jumla tuza olmaydigan bola tilning ma’no nozikliklarini puxta egallab oladi. Yozma va og‘zaki tarzda ravon fikr ifodlashni o‘rganadi. Eng muhim, uni ezgu ma’naviyatli odam sifatida shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi” [3,13]. Bunday shaxslarning jamiyatda yetishishi uchun esa bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi chuqur bilim va ilmiy salohiyatga ega bo‘lishi darkor.

Kitob o‘qishning foydalari kitob o‘qish inson organizmi uchun judayam foydali va bu foydalarni sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Lekin bulardan eng keraklilari va kitob o‘qishning ijobiy ahamiyatlari quyida keltirilgan:

1. Fikrlashni kuchaytiradi

Kitob o‘qishning eng asosiy foydasi bu fikrlashni kuchaytirishida. Biz kitobni o‘qiganda uning mohiyatini tushunish uchun fikrlaymiz, o‘ylaymiz va ba’zida taxmin qilamiz. Shu orqali zehnimiz o‘tkirlashaveradi.

2. Stressni tushiradi.

Stress hozirga kelib eng katta muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Fantastik kitob o‘qish stressni oldini oladi. Qanday qilib deysizmi? Fantastik kitobni mutolaa qilish vaqtida sizning hayolingiz bu dunyodan chiqib kitobdag'i dunyoga moslashadi, tabiiyki kitobda sizning muammolaringiz bo‘lmaydi va siz huddi yangi hayot kechirayotgandek bo‘lasiz.

3. So‘z boyligini orttiradi.

Albatta kitobdag'i siz uchun notanish bo‘lgan har bir so‘z keyinchalik oz miqdorda bo‘lsa ham hotirangizda saqlab qolinadi. Siz bilgan so‘zlarni sinonimi esa kelajakda o‘z gaplaringizni yanada go‘zallashtirishga yordam beradi

4. Uyquni muvozanatga keltiradi.

Agar siz uqlashdan oldin doim kitob o‘qib tursangiz, kitob o‘qish miyya uchun maxsus “uyqu” uchun signaldek bo‘ladi. Kitob mutolaasi davomida miyya sekin asta uyquga tayyorlanadi va siz oldingiga nisbatan tinch uyquda bo‘lasiz.

5. Miyya faoliyatini yaxshilaydi va tasavvurni boyitadi.

Kitob o‘qiyotgan vaqtida har xil buyum yoki personajlarni siz tasavvuringiz orqali ko‘ra olasiz. Kitobdag'i voqealar esa ko‘z oldingizda xuddi kinodek o‘tib boradi. Bu esa miyya uchun eng yaxshi mashq. Kitob o‘qish orqali dunyoqarash va tasavvuringiz boyib boradi. Yaxshi kitob doimo foyda bo‘lgan [7].

Badiiy adabiyot vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy shakllantirishni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- Ona Vatani va o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi.

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining insonlar va ular tomonidan yaratilgan ne’matlarga, mehnatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish.

- o‘quvchilarning uni atrofidagi tengdoshlari, qarindoshlari, jamiyat a’zolariga bo‘lgan munosabati.

-uning shaxs sifatida o‘z-o‘ziga nisbatan qarashlarini qaror toptirish.

Badiiy adabiyot haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, badiiy adabiyot yordamida o‘quvchilarga ta’lim – tarbiya berish jarayonida ma’naviy – axloqiy fazilatlar shakllantiriladi.

O‘quvchilarda badiiy adabiyotning ma’naviy jihatlarini idrok qilish quyidagi tamoyil asosida amalga oshiriladi:

- a) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda ma’naviy tushunchalar hosil qilish;
- b) asarlarning mazmuni haqida fikr yuritish;
- d) asarlardagi hayotiy voqealarni tahlil qilish orqali xulosa chiqarish [5,40].

XULOSA

Hozirgi kunda kitobxonlik va badiiy adabiyotdan foydalanish orqali ta’lim – tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri yosh avlodga ajdodlarimiz asrlar davomida orttirilgan ma’naviy boyliklarni singdirish, ularda insoniy fazilatlarni qaror toptirish va muntazam rivojlantirib borish, Vatan va millat oldidagi burch va mas’uliyatni his etishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ma’nan yetuk, jismonan sog‘lom, jahon ilm faniga mos shaklda fikrlay oladigan, o‘z fikrlarini qo‘rmasdan boshqalarga yetkaza oladigan yoshlarni tarbiyalash muhimdir. Zamonaviy kasblarni puxta egallah, xorijiy tillarni mukammal o‘rganish va bugungi globallashgan zamonda to‘g‘ri qaror chiqara oladigan yoshlarni tarbiyalash, ularda iqtisodiy bilimlarni oshirish, tadbirkorik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ko‘proq mutolaaga e’tibor qaratish lozim. O‘zbek adiblaridan Imom al-Buxoriyning “Al jome as-sahih”, “Adab al-mufrat”, Y.X.Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlari, Z.M.Boburning “Boburnoma”, A.Qodiriy romanlari, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Odoblar xazinasi”, “Baxtiyor oila”, Tohir Malik “Odamiylik mulki”, S.Quronov “Galaktika” kitoblarini, I. Ibrat, M. Behbudiy, A.Avloni, G.G‘ulom, Ch.Aytmatov, A.Azimov R.Bredberi, J.Vern, H.K.Andersen, J.Rodari kabi o‘zbek va chet el adabiyoti vakillarining kitoblari sanab o‘tgan ko‘nikmalarni, albatta, shakllantira oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik orqali tadbirkorlikka oid bilimlarni oshirishda ushbu adiblar va ularning asarlariga suyanish mumkin.

Kitob o‘qish kitobning duch kegan joyini ochib, rasmga tushish yoki biyron gapirish emas. Umuman olganda, oshqozon uchun taom qancha zarur bo‘lsa, miya uchun bilim shuncha kerak. Xulosa o‘rnida mashhur adib Boris Pasternakning “Buyuk kitobxonlar paydo bo‘lgandagina buyuk adabiyot paydo bo‘ladi”, degan gapini keltirishni joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Imom al-Buxoriy " Al-Adab Al-Mufrat" Toshkent: "Hilol", 2015.
2. Hamroyev H. Tadbirkorlik asoslari. – T.: Yangi nashr, 2010.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning asoslari. Til va adabiyot ta'limingining dolzARB masalalari (nazariya, metodika, texnalogiya). Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDPU, 2012. 13-bet.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Odoblar xazinasi" Toshkent: "Hilol", 2015.
5. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Metodik qo'llanma. Toshkent. "O'qituvchi"-1995.
6. www.Edu.uzta'limyangiliklari
7. www.Google.comtadbirkorlikvamadaniyat